



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№9

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 419 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-sentyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Postdan xaridgacha: influenser va ilg'or veb-ilova (PWA – progressive web app)ning chakana sotuvga real ta'siri	14
Abdulaziz Madjidov	
Ta'lim xizmatlari bozori samaradorligini oshirishda ta'lim klasterlarining roli	22
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
Korxona raqobatbardoshligini oshirishda marketingning tovar strategiyasidan foydalanish holati.....	29
Xidirov Sherzod Olimovich	
O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni institutsionallashtirish: NFIS, Finlit.uz va ta'lim islohotlari	34
Irgashev Anvar Farxodovich	
Moslashuvchan menejment tizimlarini yashil iqtisodiyotga integratsiyalash tasnifi	39
Umarov Bexzod Batirovich	
Qishloq xo'jaligida innovatsion marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	43
Sheraliyev Axror Sodiqovich	
O'zbekiston Respublikasida moliyaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning tendensiyalari, undan samarali foydalanish imkoniyatlari va konseptual jihatlarini	48
Roziqov Behzod Bahrom o'g'li	
Metallurgiya korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish chet el tajribasi	54
Abdullayeva Matluba Nematovna	
Исследование связи между восприятием изменения климата и внедрением устойчивых методов ведения сельского хозяйства в Узбекистане	59
Светлана Ражабова, Бахром Миркасимов	
Surxondaryo viloyati qishloq xo'jalik tarmog'ini barqaror rivojlantirishni iqtisodiy-ekologik modellari	68
Abdug'aniyev Otabek Allajonovich, Xo'jamqulov Bekzod Turdaliyevich	
Milliy iqtisodiyotda real sektor salmog'i va uning o'zgarish tendensiyalari	75
Mambetjanov Qahramon Qurbandurdiyevich, Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi	
Qo'shilgan qiymatni soliqqa tortish uslubiyoti: xususiyatlari, vazifalari va muammolari	89
Xaitov Shuxrat Sharipboyevich	
Kognitiv yondashuv asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli va pedagogik texnologiyasi.....	94
Dadadjanova Feruza Muhammadyusupovna	
Transport tizimining rivojlanishi milliy iqtisodiy o'sishining asosi sifatida	98
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini aniqlashda zamonaviy usullar va ularning samaradorligi.....	105
Marufhanov Davron Xasanovich	
Современные методы управления на железнодорожном транспорте в процессе трансформации системы.....	109
Кушакова Мамура Наримановна	
Финансовые механизмы и модели менеджмента в развитии устойчивой экономики транспортных компаний	115
Шарапова Гулчехра Рустамовна	
Kasbiy ta'limda o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirish va baholashning innovatsion yondashuvlari	120
Maxkamova Zuhra Tursunpulotovna	
Audit ishi sifati darajasini oshirish yo'nalishlari.....	124
Qushmatov Otaxon Qurbonaliyevich	



Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning nazariy va amaliy asoslari.....	131
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Ko'chmas mulk qiymatini baholash va uning ekonometrik tahlili	135
Jaloliddinova Mohira Alisher qizi	
Современные тенденции и вызовы бюджетно-макроэкономической политики в Узбекистане	142
Хазраткулова Лола Нармуминовна	
Intellectual mulkda iqtisodiy mohiyat, mazmun hamda huquqiy jihat uyg'unligi	148
N.D.Maxmudova	
Axborot texnologiyalari asosida ta'limda loyiha boshqaruvida sun'iy intellekt va mashinali o'qitish imkoniyatlari	152
Xodjiyeva Durdona Abdurasolovna	
Концепция "Зеленого учета" и его значение для экономического развития.....	157
Умарова Зулайхо Турсуновна	
Iqtisodiyotning asosiy tarmoq va sohalariga kiritilgan investitsiyalarning joriy holati tahlili	166
Ismailova Kutlibeka Ulug'bek qizi	
O'zbekistonda yoshlar tashkiloti faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari va rivojlanish bosqichlari	172
Usmonov Adxamjon A'zamjonovich	
O'zbekiston Respublikasi maxsus iqtisodiy zonalarini investitsion holatini hududlar kesimida tahlili.....	178
Anvarxonov Abdulatifxon Jamshidxon o'g'li	
Kichik biznes va o'rta biznesni rivojlantirish orqali aholi farovonligini ta'minlash.....	184
Ahmedov Oybek Turgunpulatovich, Nurqulov Nurbek Sirojiddin o'g'li	
Fiskal siyosat instrumentlari orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va legallashtirish metodologiyasi.....	189
Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi	
Fond bozorida savdo strategiyasi va uni amalga oshirishga yo'nalishlari.....	192
Soliev Istam Ixtiyorovich	
Sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirishning asosiy tamoyillari	197
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda davlat boshqaruvi tizimining isloh qilinishi: Tajriba va istiqbollar.....	202
Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirish amaliyoti.....	209
Qosimova Lola Sultanovna	
Sanoat mahsulotlari eksportida logistika zanjirining uzluksizligini ta'minlash: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar.....	217
Kurbonova Ma'mura Abdukarim qizi	
Soliq ma'murchiligiga zamonaviy texnologiyalarini joriy etish orqali qo'shilgan qiymat soliq ma'murchiligi bazasini kengaytirish yo'llari	222
Raxmonqulov Umidjon Rustam o'g'li	
Инновационные подходы к созданию проблемно-ориентированной системы прогнозирования, оптимизации и управления отраслями региональной экономики (жилищное строительство)	231
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
Tovar-moddiy resurslar harakati samaradorligini oshirishda UZEX faoliyatining joriy holatini baholash.....	238
Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Mamatkulov Farrux Gulomjon o'gli	
Sog'liqni saqlash tizimida tadbirkorlik faoliyatining turlari	244
Solikhova Dildora Alisher qizi	



“O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” aining asisiiy faoliyatini samaradorligini oshirishda autsorsing xizmatini joriy etish strategik asoslari	250
Kaxarova Nilufar Yerkinjonovna	
Mintaqani kompleks rivojlantirishning metodologik asoslari va ustuvor yo‘nalishlari.....	256
Jumayeva Zulfiya Qayumovna	
Sog‘liqni saqlash tashkilotarida xarajatlar samaradorligini ta‘minlash masalalari	260
Raximova Maftuna Axmadjon qizi	
Aksiyadorlik jamiyatlarida sof foydani taqsimlash bilan bog‘liq bo‘lgan soliq solish masalalari	264
Suyunov Otabek Shuxrat o‘g‘li	
O‘zbekiston qonunchiligida raqamli transformatsiya jarayonida elektron to‘lov kartalarini soxtalashtirishni jinoyatlashtirish	276
Maxsadaliyeva Maftuna Toxir qizi	
Mamlakatimizda intellektual xizmatlar bozorini rivojlantirish masalalari.....	281
Miyassarov Davron Abdurashid o‘g‘li	
Validation of the dutch eating behaviour questionnaire (DEBQ) in a sample of uzbek women.....	285
Khursana Usmanova, Dr Muhammad Bilal, Dilafuz Qo‘chqorova	
Iqtisodiy xavfsizlik tizimlarini o‘ziga xos jihatlari	295
Nabiyev Bexzod Shavkatovich, Bayboboeva Firuza Nabijonovna	
Davlat qarz siyosatini optimallashtirishda islomiy moliya instrumentlarining qo‘llanish imkoniyatlarini kengaytirish yo‘nalishlari	299
Tilabov Nasrulla Tashmurotovich	
Роль институциональных структур фондового рынка в обеспечении финансовой стабильности.....	305
Камилова Севара Анваровна	
The Impact of Digitalization on the Management System in the Entrepreneurial Environment of Uzbekistan.....	309
Ibragimova Saida Ilkhomovna	
China’s Investment Strategy in Uzbekistan: Sectoral Trends and Strategic Implications (2013–2024).....	313
Maftuna Nuriddinova	
Qo‘shilgan qiymat solig‘i tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyati	319
Eshkarayev Bobir Chariyevich	
Raqamli boshqaruvning afzalliklari va uni rivojlantirish istiqbollari	324
Xolbayeva Marg‘uba Qazoqboyevna	
Korporativ boshqaruvning nazariy asoslari: O‘zbekistonda qo‘llanish imkoniyatlari.....	328
Jumayeva Guzal Sherxon qizi	
Audit organizations in Uzbekistan	332
Razzaqov Jasur Xamraboevich, Yaqubov Matrasul Mavlonberdiyevich, Sabirova Nodira Komil qizi	
Xorijiy investitsiyalarning turlari va xususiyatlari	337
Gofurov Doston Boxromovich	
Mahalliy budjet mablag‘larining samaradorligini oshirishda auditning o‘rni.....	341
Primova Shaxnoza Komiljonovna	
Модели управления государственными финансами в зарубежных странах.....	345
Наимов Шохрух Шарофиддинович	
O‘zbekistonning sirkulyar iqtisodiyotga o‘tishi: yashil o‘sish indikatorlari tahlili	352
Hakimov Anvarjon Abdulloyevich	
Innovation management in the education system: practical challenges, international experience, and effective strategies based on the example of Uzbekistan.....	356
Imomov Inomiddin Abdulxamidovich, Egamberdiyev Farxod Botirovich	
Трансформация энергетического комплекса Узбекистана: текущее состояние и перспективы развития	363
Хмель Е.В., Мирджалилова Д.Ш., Дерюгина Е.А., Лозовская Н.А.	



Improving the efficiency of personnel management and optimizing labor costs in Sam Glass LLC.....	368
Musayeva Shoirazimovna, Agzamov Avazkhon Talgatovich	
Interactive design and museum management: enhancing guided tours through IOT and virtual solutions.....	374
Ibrokhimova Aziza Abbasovna	
Hududlar investitsion jozibadorligini oshirish yo'llari.....	379
Imomova Kamola Novfal qizi	
"Innovatsion usulda baliq yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari (Sirdaryo tumani misolida)"	385
Bo'ltakov Sardor Oqbo'ta o'g'li	
Bank filial tarmoqlari samaradorligini baholashning xorijiy tajribasi va undan O'zbekiston banklari amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	392
Xoshimov Og'abek Nizomjon o'g'li	
Zamonaviy iqtisodiyotda davlat xaridlarinin elektron savdolarining o'rni	398
Burxanov G'ofur Baxodirovich	
Реализация концепции развития рынка зеленой экономики в сфере экономической безопасности Республики Узбекистан.....	401
Юнусова Римма Рахманбердиевна	
Tijorat banklaridan "foyda" solig'ini undirishning bugungi holati.....	408
Ergasheva Lobar Raxmatulla qizi	
O'zbekiston oziq-ovqat sanoatini iqtisodiy rivojlantirish yo'nalishlari	415
Abasova Gulirano Rahmatullo qizi	



O'ZBEKISTON OZIQ-OVQAT SANOATINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

Abasova Gulirano Rahmatullo qizi

Ilmiy darasi: Magistr

Email: abasova.gulirano@mail.ru

Annotatsiya: O'zbekistonning qishloq xo'jaligi resurslari va tabiiy-iqlim sharoitlari keng assortimentdagi meva-sabzavot, g'alla va go'sht mahsulotlarini ishlab chiqarish imkonini beradi. Maqolada O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, mavjud muammolar va ularni hal etish bo'yicha iqtisodiy mexanizmlar tahlil qilinadi. Qishloq xo'jaligi, qayta ishlash sanoati va eksport salohiyatini kuchaytirish orqali ichki bozorni barqaror ta'minlash va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat sanoati, iqtisodiy rivojlanish, qayta ishlash, investitsiya, eksport, innovatsiya.

Abstract: Uzbekistan's agricultural resources and climatic conditions allow it to produce a wide range of fruits, vegetables, grains and meat products. The article analyzes the main directions of the food industry development in the Republic of Uzbekistan, the existing problems and the economic mechanisms for their solution. The issues of sustainable provision of the domestic market and increasing international competitiveness through increasing the potential of agriculture, the processing industry and exports are highlighted.

Key words: food industry, economic development, processing, investment, export, innovation.

Аннотация: Сельскохозяйственные ресурсы и природно-климатические условия Узбекистана позволяют производить широкий ассортимент плодовоовощной, зерновой и мясной продукции. В статье анализируются основные направления развития пищевой промышленности в Республике Узбекистан, имеющиеся проблемы и экономические механизмы их решения. Освещаются вопросы устойчивого обеспечения внутреннего рынка и повышения международной конкурентоспособности за счет наращивания потенциала сельского хозяйства, перерабатывающей промышленности и экспорта.

Ключевые слова: пищевая промышленность, экономическое развитие, переработка, инвестиции, экспорт, инновации.

KIRISH

Korporatsiyalar va korxonalarning barqaror rivojlanishini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish strategiyasining asosi hisoblanadi. Bu mamlakatning barqaror rivojlanishining barcha elementlariga ustuvor ta'sir ko'rsatadigan va ushbu muammoni o'rganishda eng katta e'tiborga loyiq bo'lgan korxonalardir. Shu munosabat bilan oziq-ovqat sanoati korxonalari barqaror rivojlanishini ta'minlash nazariyasi va amaliyotini takomillashtirish hozirgi kunda nafaqat nazariy, balki eng muhim amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekistonning tabiiy-iqlim sharoitlari qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish uchun qulay bo'lib, mamlakatda keng assortimentdagi meva-sabzavotlar, don va go'sht mahsulotlarini yetishtirish imkoniyati mavjud. Shu bilan birga, oziq-ovqat sanoatida mavjud muammolar ham mavjud: texnologik kechikishlar, logistika va saqlash infratuzilmasining yetarli rivojlanmagani, xalqaro standartlarga mos sertifikatsiyalash tizimining sustligi, shuningdek, eksportdagi raqobatbardoshlikning pastligi. Bu omillarni bartaraf etish O'zbekistonning oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilgan Harakatlar strategiyasi va iqtisodiy islohotlar dasturlari aynan ushbu sohada rivojlanishni jadallashtirishga qaratilgan. Xususan, qishloq xo'jaligida klaster tizimini joriy etish, qayta ishlash korxonalarini zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash, eksportyorlar uchun bojxona va soliq imtiyozlarini kengaytirish kabi chora-tadbirlar sohaning iqtisodiy o'sishini rag'batlantirmoqda [1]. Shu bilan birga, BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ham O'zbekistonda oziq-ovqat ishlab chiqarish zanjirini takomillashtirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va eksport bozorlariga kirishni osonlashtirish bo'yicha tavsiyalar bermoqda [2].



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oziq-ovqat mahsulotlari bozori "Bozor" toifasining ajralmas qismi bo'lib, bozorning mohiyatini tashkil etuvchi ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarga xos xususiyat va aloqalarga ega. Shuningdek, u iste'mol tovarlari bozori bo'lib, bozorning ushbu turiga xos bo'lgan va uni boshqalardan ajratib turadigan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Yangi iqtisodiy sharoitlarda oziq-ovqat mahsulotlari bozorining rivojlanish qonuniyatlarini asoslash, uning mohiyati, vazifalari, tarkibiy elementlari va oziq-ovqat mahsulotlari bozorini tartibga solish mexanizmlari, uning roli va ijtimoiy bozor iqtisodiyotidagi o'rini aniq tushunishni talab qiladi. Oziq-ovqat mahsulotlari bozori insoniyat tarixiy taraqqiyotining muhim omili bo'lib, xorijiy va mamlakatimiz olimlarining ilmiy tadqiqotlarida turlicha talqin etilgan.

Xususan, L.A. Leontiev va D.V. Shpakovskiylar oziq-ovqat bozoriga quyidagi ta'rifni bergan: "Oziq-ovqat bozori – bu qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining ayirboshlash sohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari yig'indisi bo'lib, ular orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish va sotib olish amalga oshiriladi" [3].

Pyankova K.V. va Yasreva Ye. Alar esa: "Oziq-ovqat mahsulotlari bozorini, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, xomashyo va oziq-ovqat mahsulotlarini, shu jumladan, talab, taklif va narxlarni tashkil etuvchi agrooziq-ovqat majmui va savdo tarmog'ining xo'jalik yurituvchi subyektlarini ishlab chiqarish, muomalaga chiqarish va taqsimlash bo'yicha iqtisodiy munosabatlar tizimi" deb ta'riflaydi.

Novoselov A.S. oziq-ovqat bozorini rivojlangan tovar-pul munosabatlari asosida aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini minimal taqsimlash xarajatlari bilan qondirishni ta'minlaydigan muomala sohasi sifatida belgilaydi [3]. Bizning fikrimizcha, bu formula ham o'zining butun mohiyatini yetarlicha ochib bera olmaydi, chunki u bozorning faqat infratuzilmaviy komponentini aks ettiradi. Goncharov V.D. va Zinina L.I. oziq-ovqat bozorini oziq-ovqat xomashyosi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, taqsimlash, almashish va iste'mol qilishni qamrab oluvchi iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida belgilaydilar [4].

Oziq-ovqat mahsulotlari bozori – mavjud resurslardan foydalangan holda iste'molchilarni oziq-ovqat mahsulotlariga, qishloq xo'jaligida qayta ishlash korxonalarini esa xomashyoga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradigan, sotuvchilar va xaridorlarning o'zaro munosabatlarini, narx darajasini, talab va taklif nisbatini, aholining turli ijtimoiy guruhlari o'rtasidagi oziq-ovqat mahsulotlarini taqsimlashni belgilaydigan, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, muomalaga chiqarish va sotish jarayonida rivojlanadigan iqtisodiy munosabatlardir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda O'zbekiston oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish yo'nalishlari nazariy tahlil, statistik ma'lumotlar, solishtirma tahlil, sistemali yondashuv va ekspert baholash orqali o'rgandi. Ushbu metodlar yordamida asosiy muammolar, imkoniyatlar va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon moliyaviy inqirozi va iqtisodiy beqarorlikdan chiqish jarayonida amalga oshirilgan ilmiy-texnik taraqqiyot va tizimli o'zgarishlar natijasida sanoatdagi chuqur va keng ko'lamli o'zgarishlar, JSTga kirishni rejalashtirish oziq-ovqat sanoati korxonalariga ko'plab vazifalarni yuklaydi, ulardan eng muhimi boshqaruv tizimini qayta qurish va ayniqsa, integratsiyalashgan tuzilmalarni yaratishdir.

Respublika hukumati oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Respublikada oziq-ovqat sanoatining barqaror rivojlanishi iste'mol tovarlarining quyidagi turlari bo'yicha o'tgan yilgi ishlab chiqarish ko'rsatkichlaridan oshib ketishiga imkon berdi: sut va sut mahsulotlari (158,9 %), sariyog' (144,2 %), o'simlik yog'i (122,3 %), non va non mahsulotlari (118,2 %), margarin mahsulotlari (111,4 %), maishiy sovun (105,1 %).

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining axborot xizmati xabar berishicha, ko'rib chiqilayotgan davrda respublika yirik sanoat korxonalari tomonidan makaron mahsulotlari (2012-yilning birinchi choragiga kelib 154,3 %), don mahsulotlari (35,5 baravar), muzqaymoq (2,3 baravar), mineral suvlar (130,9 %) ishlab chiqarish sezilarli darajada ko'paydi. Oziq-ovqat sanoati korxonalari 2020-yil yanvar-mart oylarida 1,68 trln mahsulot ishlab chiqardi, bu o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 106,2 % ni tashkil etdi [5].

Oziq-ovqat sanoatining barqaror rivojlanishi uchun uyushmalar (Ittifoq) tashkil etildi. Uyushmalar hokimiyat va sudlarda xalq manfaatlarini ifodalaydi, ommaviy axborot vositalari bilan faol hamkorlik qiladi. Shu bilan O'zbekiston oziq-ovqat sanoati korxonalari assotsiatsiyasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Global hamkorlik dasturi va BMTning O'zbekistondagi barqaror rivojlanish bo'yicha biznes chempionlari koalitsiyasiga qo'shildi. Tashkilot mamlakatimiz tomonidan qabul qilingan BMT dasturining birinchi rasmiy a'zosi bo'ldi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Global hamkorlik dasturi butun dunyo bo'ylab biznes amaliyotlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda etakchi tashkilotlarga yordam beradigan va birlashtiradigan loyiha hisoblanadi.



Ushbu sheriklik dasturi tashkilotlarga korporativ barqarorlikni, kompaniyaning qiymat tizimini va biznes tamoyillarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishga yordam beradi [6].

Oziq-ovqat sanoati korxonalari uyushmasiga qishloq joylarda yangi korxonalarni tashkil etish va aholini ish bilan ta'minlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Masalan, Sariosiyo tumanida 300 tonna sutni qayta ishlash bo'yicha "Saxovat" qo'shma korxonasi, Qamashi tumanida 800 tonna sutni qayta ishlash bo'yicha "Ekosut" korxonasi ochilishi bunga misoldir. Bugungi kunda oziq-ovqat sanoati korxonalari assotsiatsiyasi tarkibida mingdan ortiq turdagi mahsulotlar, shu jumladan o'simlik moylari, margarin, shakar, go'sht-sut mahsulotlari, qandolat mahsulotlari, meva-sabzavot konservalari ishlab chiqariladigan 150 dan ortiq oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda [7].

Yog'-moy sanoati O'zbekiston Respublikasi oziq-ovqat sanoatining muhim qismidir. Soya fasulyesi importi davlat miqyosida boshlandi va soyani qayta ishlash texnologiyasi o'zlashtirildi. Mahalliy no'anaviy moyli ekinlarni etishtirish va qayta ishlash asta-sekin rivojlanmoqda – aspir, kungaboqar, zig'ir, kunjut va tosh mevalarni yig'ish. Bozor iqtisodiyoti joriy etilishi va oziq-ovqat mustaqilligini ta'minlash dasturi amalga oshirilishi munosabati bilan O'zbekiston yog'-moy sanoatida ishlab chiqarish quvvatlari ham, multikulturalarni qayta ishlashga qaratilgan texnologiyalarda ham sezilarli o'zgarishlar yuz berdi [8].

Tarmoqni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari:

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha yirik korxonalar quvvatlaridan foydalanish darajasini oshirish;

asosan yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha to'liq texnologik tsiklga ega bo'lgan kichik korxonalarda, birinchi navbatda, band bo'lmagan mehnat resurslari yuqori bo'lgan hududlarda zamonaviy ishlab chiqarishlarni yaratish;

agrosanoat integratsiyasini, barcha ishlab chiqarish bo'g'inlarining funksional-texnologik yaxlitligini hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish va uni qayta ishlash jarayonlarining o'zaro bog'liqligini ta'minlaydigan tegishli infratuzilmani yaratish orqali mahalliy xomashyoni qayta ishlash chuqurligini oshirish;

meva-sabzavot konservalari, meva sharbatlari, qandolat mahsulotlari, go'sht-sut mahsulotlari, mahsulotlar, yog'-moy mahsulotlari ishlab chiqarish va assortiment xilma-xilligini kengaytirish, shuningdek, muzlatilgan va quritilgan oziq-ovqat mahsulotlari, bolalar oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkil etish;

genetik modifikatsiyalangan texnologiyalardan foydalanmasdan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish.

Bu mahsulotlarning ekologik xavfsizligi va aholining salomatligi hamda hayot sifatini ta'minlash uchun jahon standartlari va talablarining kuchayishi bilan bog'liq. Shuningdek, respublikaning ekologik toza tumanlarida jahon bozorida talab yuqori bo'lgan ekologik mahsulotlarni yetishtirish; aholining oziqlanishi va sog'ligini yaxshilash uchun oziq-ovqat mahsulotlarining innovatsion yangilanishini ta'minlash (funktional mahsulotlar, muzlatilgan non, bolalar, qariyalar va sportchilar uchun oziq-ovqat mahsulotlarini sotishdan oldin darhol pishirish va hokazo); oziq-ovqat mahsulotlari va ularni qayta ishlash mahsulotlari bozorlarining to'g'ri ishlashini ta'minlash va oziq-ovqat narxlarining haddan tashqari o'zgaruvchanligini cheklash maqsadida bozor ma'lumotlariga, shu jumladan oziq-ovqat zaxiralari o'z vaqtida kirishni ta'minlash choralarini ko'rish; aholining barcha qatlamlari, ayniqsa ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lganlar, shu jumladan chaqaloqlar, yil davomida hayotiy va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlaridan foydalanish imkoniyatiga ega holda, kerakli miqdorda muvozanatli va yuqori sifatli ovqatlanishni ta'minlash [9].

Rivojlangan va yuqori mahsuldor qishloq xo'jaligi har qanday davlatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy shartlaridan biridir. 2017-yil boshida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi"ning ustuvor yo'nalishlaridan biri qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son¹ Farmoni bilan "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi" tasdiqlandi, u to'qqizta strategik ustuvorlikni qamrab oldi, ulardan birinchisi aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash edi.

Oziq-ovqat xavfsizligi davlatning agrar va iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlaridan biridir. Oziq-ovqat xavfsizligi quyidagi elementlardan iborat: etarli miqdordagi, xavfsiz va to'yimli oziq-ovqat mahsulotlarining jismoniy mavjudligi; aholining barcha ijtimoiy guruhlarining tegishli hajmi va sifatiga oziq-ovqat mahsulotlarining iqtisodiy mavjudligi; milliy oziq-ovqat tizimining avtonomiyasi va iqtisodiy mustaqilligi (oziq-ovqat mustaqilligi); ishonchlilik, ya'ni milliy oziq-ovqat tizimining mavsumiy, ob-havo va boshqa tebranishlarning mamlakatning barcha mintaqalari aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlashga ta'sirini minimallashtirish qobiliyati; barqarorlik, ya'ni milliy oziq-ovqat tizimi kengaytirilgan ko'payish rejimida rivojlanadi [10].

¹ <https://lex.uz/docs/-4567334>



XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, oziq-ovqat sanoati korxonalarining barqaror rivojlanishi deganda korxonalarning tizimni tashkil etuvchi makro va mikroiqtisodiy komponentlar juftlari o'rtasidagi muvozanatni qo'llab-quvvatlagan holda va xom ashyo ishlab chiqaruvchilari hamda mahsulot xaridorlari bilan mavsumiylik va chiziqli bo'lmagan aloqalarni hisobga olgan holda belgilangan xususiyatlar va ishlash parametrlarini saqlab qolish qobiliyati tushunilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev, Sh. M. O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. — Toshkent : O'zbekiston, 2017. — 54 b.
2. FAO. Uzbekistan: Agri-food Sector Review. — Rome : FAO, 2022. — 120 p.
3. Новоселов, А.С. Региональный потребительский рынок. Проблемы теории и практики / А.С. Новоселов / Отв. ред. В.В. Кулешов. - Новосибирск: Сибирское соглашение, 2002. - 364 с.
4. Гончаров, В.Д. Формирование и функционирование товарных рынков в России / В.Д. Гончаров. - М.: Аг-рониитепп, 2001. - 166 с.
5. <https://uzreport.news/economy/predpriyatiya-pishhevoy-promyshlennosti-uzbekistana-produktsii-na-6-2-> [uvelichili-vyipusk-](#)
6. <https://podrobno.uz/cat/economic/v-uzbekistane-viroslo-proizvodstvo-vodki/>
7. <https://brightuzbekistan.uz/ru/associaciya-predpriyatij-pishchevoj-promyshlennosti-uzbekistana-oficialno-stalachenom-programmy-globalnogo-sotrudnichestva-on/>
8. <https://www.uzdaily.uz/ru/post/14815>
9. <https://www.apk-inform.com/ru/exclusive/topic/1508413>
10. <https://nuz.uz/ekonomika-i-finansy/44700-pischeprom-uzbekistana-ozvuchil-potrebnost-naseleniya-v-ryade-vazhneyshih-produktov-pitaniya.html>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
